
AHOLI SALOMATLIGI YO'LIDA.

Mamlakatimizda bolalar salomatligini yaxshilash, tibbiy xizmat sifatini yanada oshirish borasida tizimli ishlar olib borilmoqda. Viloyatimiz hamda shahrimizda ham yangi tibbiyot muassasalari bunyod etilib foydalanishga topshirilmoqda.

Jumladan, Farg'ona viloyat bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markazida qo'shimcha 90 o'rinli bino qurilmoqda. Davlat dasturi asosida 15.6 mlrd. so'm mablag' ajratilib bunyod etilayotgan tibbiyot muassasasini foydalanishga topshirish joriy yilning sentyabr oyiga rejalashtirilgan. Yangi bino zamonaviy tibbiy asbob-uskunalar bilan jihozlanadi.

Qurilish va ta'mirlash ishlarini Bahodirjon Akbarov rahbarligidagi Marg'ilon shahar 426-XIKMK MChJning ishchi va xodimlari olib bormoqda. Jamiyatning 60 nafarga yaqin quruvchilar markazni belgilangan muddatda topshirish maqsadida astoydil mehnat qilmoqdalar.

Bugun Farg'ona viloyati hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo'jalik, ekologiya va ko'kalamzorlashtirish masalalari bo'yicha o'rinbosari H.Isaqov, shahar hokimi V.Nazarov va keng jamoatchilik vakillari ishtirokida tibbiyot muassasasiga birinchi g'isht qo'yildi. Rahbarlar tomonidan qurilish korxonasi mas'ullariga ishni sifatli va belgilangan tartib bo'yicha olib borish yuzasidan tegishli topshiriq hamda ko'rsatmalar berildi.

2022-06-16 12:54:26